“Qoraqalpog‘istonda arxeologiya fanining yutuqlari” respublika ilmiy konferensiyasi o‘tkazildi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida tarix fanlari doktori, professor Yagodin Vadim Nikolayevich tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan “Qoraqalpog‘istonda arxeologiya fanining yutuqlari” mavzusida respublika ilmiy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.







Unda respublikamizdagi yetakchi arxeolog olimlar, akademiklar, yosh tadqiqotchilar, oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari, talabalar, shuningdek, Rossiya hamda Qozog’istondan ham soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

Konferensiyaning maqsadi O‘rta Osiyoda so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda yangi arxeologik kashfiyotlar natijalari bilan tanishish, turli mamlakatlar arxeologlari va tarix fanining yo'nalishlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, oliy o’quv yurtlari talabalari orasida tarix fanini ommalashtirish, talabalar, magistrantlar va yosh olimlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rag‘batlantirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishdan iborat.

Konferensiya ishida so'nggi yillardagi yangi arxeologik kashfiyotlar, antik va o‘rta asrlarda o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi va ko‘chmanchilar o‘rtasidagi madaniy munosabatlar, O‘rta Osiyoning qadimiy va o‘rta asr shahar madaniyati, antik va o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning kulolchilik mahsulotlari, O‘rta Osiyo aholisining antik va o‘rta asrlarda dafn marosimlari haqida bir-biridan qiziqarli ma’ruzalar taqdim etildi hamda muhokama qilindi.